

## "FastTrack International" Aksiyasi qoidalari

### Ta'riflar va ularning talqini

**FastTrack** — shaxsga Aeroportda uzun navbatlarni chetlab, qisqa vaqtda va maksimal qulayliklar bilan rasmiyatchiliklardan o'tish imkonini beradigan o'ziga xos xizmat.

**QR-kod** — Chat-botda ushbu Qoidalar shartlariga muvofiq Aksiya ishtirokchisiga taqdim etiladigan Xizmatni olish uchun maxsus grafik kod.

**Aeroport** — Istanbul aeroporti (IST), Turkiya, Larnaka aeroporti (LCA), Kipr Respublikasi; Milan Malpensa (MXP) va Milan-Bergamo (BGY), Italiya; Rim-Fyumichino (FCO) va Rim-Champino (CIA), Italiya; Barselona, Ispaniya (BCN); Gran-Kanariya (LPA), Palma (PMI), Alikante (ALC), Valensiya (VLC), Malaga (AGP), Ispaniya va boshqa aeroportlar bo'lib, ularning to'liq ro'yxati chat-botda keltirilgan.

**Aksiya** — "FastTrack International" promoaksiyasi.

**Bank** — tegishli bank litsenziyasi asosida Ukraina, Gruzija, Ozarbayjon Respublikasi, Belarus Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi, Armaniston Respublikasi,

Qozog'iston Respublikasi yoki Moldova Respublikasining tegishli hududida bank xizmatlarini taqdim etishning mutlaq huquqiga ega bo'lgan yuridik shaxs.

**Verifikatsiya qurilmasi** — Aeroportdagi maxsus texnik vositasi bo'lib, Aksiya Ishtirokchisiga ushbu Qoidalar shartlariga muvofiq xizmat ko'rsatish uchun QR-kodni o'qishga imkon beradi.

**Buyurtmachi** — "Visa International. Service Association" bo'lib, uning joylashgan manzili: AQSh, CA, 94404 – 2775, Foster Siti sh., Metro Senter xiyoboni, 900.

**Kartalar** — Bank tomonidan chiqarilgan, Aksiya Ishtirokchisiga Aksiyada ishtirok etish huquqini beruvchi Visa Platinum, Visa Signature va Visa Infinite, Visa Platinum Business, Visa Signature Business to'lov kartalari.

**Messenjer** — tezkor xabar va video almashish uchun ilova, xususan, Viber, Telegram.

**Tashkilotchi** — "INFOCUS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI, yuridik shaxsning identifikatsiya kodi: 36563986, manzili: Ukraina, 01023, Kiyev sh., Sportivnaya maydoni, 1. A- uy.

**Hamkor** — "RENOVATSIO" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI, yuridik shaxsning identifikatsiya kodi: 38876589, manzili: Ukraina, 61099, Xarkov sh., Yenakiyevskaya ko'chasi, 11-A-uy.

**Xizmat** — Aksiya Ishtirokchilariga Aeroportda taqdim etiladigan Fast-track toifasidagi xizmat (kelish va ketish uchun). Ushbu xizmat Aksiya Ishtirokchisiga sovg'a hisoblanadi.

**Qoidalar** — Aksiyaning ushbu qoidalari.

**Aksiyaning amal qilish muddati** — 09.07.2021-yil soat 00:00:01dan 30.09.2024-yil soat 23:59:59gacha.

**Aksiya Ishtirokchilari** — ushbu Qoidalarining me'yorlariga muvofiq Aksiyada ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, Karta egalari. Xizmat barcha ishtirokchilar uchun bir xil. Bunda Kartalar egalari qaysi Kartalardan foydalanishiga qarab farqlanadi xolos.

**Chat-bot** — “Visa Ukraine” va “Visa Concierge” chat-boti bo'lib, ular Messengerlardagi [https://mssg.me/service\\_concierge](https://mssg.me/service_concierge) yoki [https://mssg.me/concierge\\_\\_service](https://mssg.me/concierge__service) havolasida joylashgan.

## **1. Aksiya Ishtirokchilarining Aksiyada ishtirok etishi tartibi**

**1.1.** Aksiyada ishtirok etish maqsadlari uchun, Aksiyada ishtirok etish va Aksiya ishtirokchisi bo'lish istagi bo'lgan shaxs Aksiyaning amal qilish muddati davomida quyidagi harakatlarni bajarishi kerak:

**1.1.1.** Kartaning amaldagi egasi bo'lish;

**1.1.2.** Chat-botdagi ro'yxatdan o'tishning ichki mexanikasiga ko'ra Chat-botda ro'yxatdan o'tish yoki ro'yxatdan o'tgan bo'lish;

**1.1.3.** Chat-botning asosiy menyusidagi "FastTrack International" tugmasini bosish;

**1.1.4.** Chat-botning asosiy menyusidagi "FastTrack International" tugmasini bosib, Aksiya haqidagi ma'lumotlar va ushbu Qoidalar bilan tanishish;

**1.1.5.** Servisning ochiqqligini tekshirish hamda mamlakat va aeroportni tanlash;

**1.1.6.** "Vaucherni olish/get a voucher" tugmasini bosish;

**1.1.7.** Tavsiya etilgan parvoz turlaridan biri: Domestic Departure, International Departure yoki International Arrival`ni tanlash;

**1.1.8.** Chat-botda reysning raqami, sanasi, jo'nash vaqti, ism-familiyani (chiptaga muvofiq), telefon raqami va elektron pochta manzilini ko'rsatish.

**1.2.** Ushbu Qoidalarining 1.1.1.—1.1.8.-bandlarida ko'rsatilgan harakatlar muvaffaqiyatli bajarilgan taqdirda shaxs Aksiya Ishtirokchisiga aylanadi va Chat-botda QR-kodli faylni oladi.

**1.3.** Ushbu Qoidalar Aksiya Ishtirokchisi va Tashkilotchi/Buyurmachi/Hamkor o'rtasidagi rasmiy munosabatlardagi asosiy hujjat hisoblanadi.

Aksiya Ishtirokchisi tomonidan ushbu Qoidalarining me'yorlarini qabul qilish ushbu Qoidalarining 1.1.1.—1.1.8.-bandlarida ko'rsatilgan harakatlarni izchil bajarish orqali amalga oshiriladi.

**1.4.** Aksiya Ishtirokchisi tomonidan qabul qilish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi va ushbu Qoidalar shartlari bo'yicha yozma shartnoma tuzishni ifodalaydi.

**1.5.** Qoidalarni qisman qabul qilishga yo'l qo'yilmaydi.

**1.6.** Karta aviachiptaning butun amal qilish muddati davomida amal qilishi kerak.

## **2. QR-kodni qo'llashning xususiyatlari**

**2.1.** Xizmatni yil davomida istalgan sanaga buyurtma qilish mumkin. QR-kod xizmatning buyurtma sanasiga amal qiladi, lekin Qoidalarining 1.1.7. va 1.1.8.-bandlarida ko'rsatilgan reysda qo'llanadi.

**2.2.** QR-kod Aksiya Ishtirokchilariga quyidagi limitlar asosida taqdim etiladi:

**2.2.1.** Visa Platinum, Visa Platinum Business turidagi Kartalar egalari bo'lgan Aksiya Ishtirokchilari uchun

Aksiyaning amal qilish muddati davomida 2 ta (ikkita)dan ortiq QR-kod taqdim etilmaydi;

**2.2.2.** Visa Signature, Visa Signature Business turidagi Kartalar egalari bo'lgan Aksiya Ishtirokchilari uchun

Aksiyaning amal qilish muddati davomida 10 ta (o'nta)dan ortiq QR-kod taqdim etilmaydi;

**2.2.3.** Visa Infinite, Visa Infinite Business turidagi Kartalar egalari bo'lgan Aksiya Ishtirokchilari uchun QR-kodlar Aksiyaning amal qilish muddati davomida Visa Infinite turidagi Karta egalari bo'lgan Aksiya Ishtirokchisi uchun zarur bo'lgan miqdorda taqdim etiladi.

**2.3.** QR-kod faqat Aksiya Ishtirokchisi tomonidan o'zi uchun foydalanilishi va uchinchi shaxslarga o'tkazilishi mumkin.

**2.4.** Aksiyaning amal qilish muddati davomida foydalanilmagan QR-kod boshqa muddatga o'tkazilmaydi, to'planmaydi, qo'shilmaydi hamda unga pul yoki boshqa tovonlar to'lanmaydi.

**2.5.** QR-kodli faylda QR-kod bilan bog'liq muammolar yuzaga kelganda Hamkorning texnik ko'mak xizmati bilan bog'lanish uchun "tezkor javob tugmalari" funksiyasi mavjud.

### **3. Tomonlarning javobgarligi**

**3.1.** Aksiya Ishtirokchisi taqdim etilgan ma'lumotlarning to'g'riligi va Kartadan foydalanish huquqi uchun amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan javobgarlikni zimmasiga oladi.

**3.2.** Soliqlar, yig'imlar va majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati amaldagi qonunchilikda kimning zimmasiga yuklatilgan bo'lsa, o'sha shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

**3.3.** Buyurtmachi/Hamkor/Tashkilotchi Aksiya Ishtirokchisining QR-koddan o'zlariga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra foydalana olmasligi, jumladan, lekin cheklanib qolmasdan, Verfikatsiya qurilmasligining buzilishi, reysning bekor qilinishi, ko'chirilishi yoki kechiktirilishi, Aeroport ishidagi o'zgarishlar, Aksiya ishtirokchisi amaldagi qonun hujjatlari me'yorlarining buzilishi va shunga o'xshash holatlar uchun javobgar emas.

### **4. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash**

**4.1.** Aksiya doirasida, Aksiya ishtirokchisining shaxsiy ma'lumotlari qayta ishlanishi uchun alohida asos hisoblanadigan ushbu Qoidalar shartlari asosida tuzilgan shartnomaga muvofiq, Aksiya ishtirokchisi Tashkilotchiga quyidagi shaxsiy ma'lumotlarni taqdim etadi: ingliz tilida bayon etilgan familiya, ism, otasim, telefon raqami va elektron pochta manzili.

Ushbu ma'lumotlarni qayta ishlash qoidalari Chat-botda mavjud bo'lgan ma'lumotlarni qayta ishlash qoidalarining bir qismi hisoblanadi.

**4.2.** 4.1-bandda ko'rsatilgan shaxsiy ma'lumotlar Ishtirokchining Aksiyada ishtirok etish huquqini ta'minlash maqsadida Aksiyaning amal qilish muddati davomida

qayta ishlanadi. Bunday shaxsiy ma'lumotlar ushbu Qoidalarining shartlarini bajarish maqsadida yig'iladi, qayta ishlanadi, uzatiladi (Tashkilotchining xorijiy serverlariga va Hamkorga). Tashkilotchi bunday shaxsiy ma'lumotlarning egasi va foydalanuvchisi hisoblanadi. Hamkor shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlash bo'yicha o'z siyosatiga ega, ammo har qanday holatda ham bunday ma'lumotlar ushbu qoidalarga zid ravishda qayta ishlanishi mumkin emas. Aksiya Ishtirokchisi Hamkorning shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash siyosati bilan quyidagi veb-havola orqali tanishishi mumkin: <https://highpass.aero/Home/PrivacyPolicy>

**4.3.** Qoidalarining 1.1-bandida ko'rsatilgan harakatlarni bajarish orqali Aksiya Ishtirokchisi o'zining shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashning belgilangan tartibiga roziligini beradi hamda amaldagi qonunchilikda unga berilgan barcha huquqlar bilan tanishganini tasdiqlaydi.

## **5. Boshqa qoidalar**

**5.1.** Tashkilotchi ushbu Aksiya Qoidalari doirasida majburiyatlarni bajarish uchun uchinchi shaxslarni jalb qilish huquqiga ega.

**5.2.** Ushbu Qoidalarni, har qanday bahsli masalalarni va/yoki ushbu Qoidalar bilan tartibga solinmagan har qanday masalalarni noaniq talqin qilishga imkon beradigan vaziyat yuzaga kelganda, Aksiya Tashkilotchisi/Buyurtmachisi bunday masalalarni hal qilish huquqini o'zida saqlab qoladi. Aksiya Tashkilotchisi/Buyurtmachisining bunday qarori yakuniy hisoblanadi va bahslashilmaydi.

**5.3.** Aksiyaning amal qilish muddati Buyurtmachi va Tashkilotchining o'zaro kelishuviga ko'ra o'zgartirilishi yoki Aksiya muddatidan tugatilishi mumkin. Aksiyaning amal qilish muddatini o'zgartirish yoki uning muddatidan oldin tugatilishi ular Chat-botda ommaga oshkor etilganda ro'y berishi mumkin.

**5.4.** Ushbu Qoidalar va ularga kiritilgan o'zgartirishlar Chat-botda tanishish uchun joylashtirilgan.

**5.5.** Tashkilotchi Aksiyaning butun muddati mobaynida amaldagi qoidalarga o'zgartirish kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi.